TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

DO‘SMATOV DURBEK RUSTAMJON O‘G‘LI

KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHNING JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK JIHATLARI

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi
12.00.15 – Kriminologiya

Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 343.711:004.056(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

DO‘SMATOV DURBEK RUSTAMJON O‘G‘LI

KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHNING JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK JIHATLARI

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi
12.00.15 – Kriminologiya

Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Yu1168 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz, (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abzalova Xurshida Mirziyatovna** yuridik fanlar doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Rasulev Abdulaziz Karimovich** yuridik fanlari doktori (DSc), professor
	Kamalova Dildora Gayratovna yuridik fanlar doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/2025.27.12.Yu.01.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “7”-avgust soat 14^{30} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (343.9-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “22”-iyul kuni tarqatildi.
(2026-yil “22”-iyuldagi 6-raqamli reyestr bayonnomasi)

R.A.Zufarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

N.K.Xojiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

Sh.Dj.Xaydarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda iqtisodiyotning jadal raqamlashuvi sharoitida kiberjinoyatchilik tashkilotlar va davlatlarning barqaror rivojlanishiga asosiy global tahdidlardan biriga aylanmoqda. Cybersecurity Ventures ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda kiberjinoyatlardan ko'rilgan umumiy global zarar 9,5 trillion AQSH dollarga yetgan bo'lsada, 2025-yilda esa 10,5 trillion AQSH dollariga etgan. Muammoning ahamiyati bulutli texnologiyalar, masofaviy xizmatlar, global internet va ma'lumotlar hajmining o'sishi tufayli raqamli hujumlarning kengayishi natijasida kuchaymoqda. Ayniqsa, tovlamachilik dasturlari xavf tug'diradi, ulardan ko'rilgan zarar 2024-yilda 42 milliard AQSH dollariga baholanmoqda. Kiberxavfsizlik sohasida 3,5 million bo'sh ish o'rinlarini tashkil etuvchi global kadrlar tanqisligi qo'shimcha xavf omili hisoblanadi. Ushbu holatlar tashkilotlarning kiberbarqarorligini ta'minlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarning yuqori ilmiy va amaliy dolzarbligini tasdiqlaydi[1].

Jahonda konseptual jihatdan, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari global taraqqiyotning fundamental tendensiyalari ta'sirida shakllanmoqda. Insoniyat rivojining hozirgi bosqichi iqtisodiyot va davlat boshqaruvidan tortib shaxsiy muloqot hamda ijtimoiy munosabatlargacha bo'lgan ijtimoiy hayotning barcha sohalarini misli ko'rilmagan darajada raqamli o'zgartirish bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy borliqning tamomila yangi o'lchami sifatida global kibermakoning shakllanishi jinoyatchilik fenomenologiyasining sifat jihatidan o'zgarishi bilan birga kechmoqda: sanoat davrida shakllangan klassik jinoyat-huquqiy va kriminologik tushunchalarga sig'maydigan o'ziga xos ontologik xususiyatlarga ega ijtimoiy xavfli qilmishlarning mustaqil turi – kiberjinoyatchilik vujudga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi tizimi, iqtisodiyot, bank sohasi, ta'lim va sog'liqni saqlashga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) faol joriy etar ekan, ayni vaqtda kompyuter tizimlari va tarmoqlaridan foydalangan holda sodir etilayotgan jinoyatlarning o'sishiga ham duch kelmoqda. Respublika Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlari raqamli muhitda jinoyatchilik muttasil ortib borayotganidan dalolat beradi. Birgina 2023-yilning o'zida huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan 8 mingdan ortiq kiberjinoyatlar qayd etilgan bo'lib, ular orasida fishing sxemalari, kompyuterlarni buzib kirish, onlayn firibgarlik, axborot resurslariga ruxsatsiz kirish va virusli dasturiy ta'minotni tarqatish kabi qilmishlar mavjud. Shu bilan birga, bunday jinoyatlarni fosh etish darajasi pastligicha qolmoqda, bu holat ularni tergov qilishning texnologik jihatdan murakkabligi hamda ushbu sohadagi mavjud huquqiy tartibga solishning yetarlicha samarali emasligi bilan izohlanadi. Mamlakatimizda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha muhim ishlar olib borilmoqda, qonunchilik darajasida kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy asosni mustahkamlash chora-tadbirlari ko'rilmoqda. Shunga qaramay, ko'rib chiqilayotgan sohadagi jinoyat-huquqiy tartibga solish hanuz bir qator jiddiy

[1] Cybercrime To Cost The World $9.5 Trillion USD Annually In 2024. https://www.esentire.com/web-native-pages/cybercrime-to-cost-the-world-9-5-trillion-usd-annually-in-2024

kamchiliklarga ega. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida kibermuhitda sodir etiladigan jinoyatlarni tasniflashga nisbatan tizimli yondashuv mavjud emas. Bundan tashqari, qonunchilikda kriptoaktivlar, internet-firibgarlik, muhim infratuzilmalarga qilingan hujumlar bilan bog‘liq kiberjinoyatlarning o‘ziga xos jihatlari inobatga olinmagan. Bu, o‘z navbatida, huquqni qo‘llash amaliyotini murakkablashtiradi, huquqiy noaniqlikka olib keladi hamda bu kabi ishlarni tergov qilish va sudda ko‘rib chiqish samaradorligini pasaytiradi. Kriminologik nuqtayi nazardan, kiberjinoyatchilikning rivojlanishiga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlar yetarlicha o‘rganilmagan. Hozirgi kunga qadar uning oldini olishning samarali mexanizmi ishlab chiqilmagan, statistik ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish bo‘yicha yaxlit tizim yo‘q, aholining raqamli madaniyat darajasi esa qoniqarsizligicha qolmoqda. Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Kiberjinoyatchilikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini, jumladan, huquqiy bo‘shliqlarni aniqlash, sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish, profilaktika yo‘nalishlarini belgilash hamda qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlashni o‘z ichiga olgan kompleks tadqiqot raqamli davrda huquqiy tartibotni mustahkamlashga va davlatning axborot xavfsizligini ta’minlashga hissa qo‘shadigan, bugungi kunda talab yuqori va dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi 439-II-son, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-764-son Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-sentabrdagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy etishni nazorat qilish, ularning himoyasini tashkil etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4452-son, 2025-yil 30-apreldagi “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–153-son, 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida manzilli ishlarning yaxlit tizimini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–1-son Qarorlari, 2026-yil 3-martdagi “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to‘g‘risida”gi PF–33-son, 2026-yil 10-martdagi “O‘zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–38-son Farmonlari hamda sohaga doir boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini yaratishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari bugungi kunga qadar kompleks monografik tarzda ishlab chiqilmagan. Axborot munosabatlarini muhofaza qilish, raqamli muhitda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning ayrim masalalari mamlakatimiz olimlari - M.X. Rustambayev, A.Anorbayev, N.S. Salayev, X.R. Ochilov, A.K. Rasulev, A.S. Tursunov va boshqa olimlarimizning asarlarida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ushbu asarlarda JK Maxsus qismining tuzilishini kiberjinoyatchilikka nisbatan jinoiy xulq-atvorning mustaqil turi sifatida tizimli ravishda qayta ko‘rib chiqish yoritilmagan.

MDHga a’zo davlatlarda birinchi yo‘nalishda kiberjinoyatlarning tarkibi, dogmatik-jinoiy-huquqiy tahlili, ularni malakalash va maxsus jinoyat-huquqiy normalarni tuzish masalalari I.R.Begishev, K.N.Yevdokimov, T.L.Tropina, U.V.Zinina, A.G.Volevoz, V.B.Vexovlarning ishlarida yoritilgan.

Ikkinchi yo‘nalish kriminologik xususiyatga ega bo‘lib, kiberjinoyatchilarni shaxsi, raqamli jinoyatchilik determinantlari va uning oldini olish mexanizmlari T.M. Lopatina, D.V. Puchkov, A.S. Kamko, A.I. Xaliullin, M.M. Dolgievlarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Uchinchi yo‘nalish xalqaro-huquqiy va qiyosiy-huquqiy yo‘nalishga ega bo‘lib, Yevropa Kengashining 2001-yildagi Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi konvensiyasi (Budapesht konvensiyasi) hamda xalqaro standartlarni implementatsiya qilishning milliy modellarini tahlil qilish D.S. Uoll, M. Gudman, E.J. Eshvort, N. Juravlenko va L. Shvedovalarning ishlarida qayd etilgan[2].

Ushbu tadqiqotlar muammoning doktrinal asosini yaratdi, biroq ularning hech biri O‘zbekiston huquqiy tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi JKning amaldagi tahriri, AKT va kriptoaktivlar bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha huquqni qo‘llash amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, raqamli muhitda viktimizatsiyaning ijtimoiy-madaniy omillarini to‘liq hisobga olmaydi. Mavzuning ilmiy jihatdan ishlab chiqilganligi ushbu kamchiliklar ishning tadqiqot vazifasini belgilashni taqozo etmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va uni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish muammolari”, “Globallashuv sharoitida jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirish muammolari”, “Sud-huquq sohasini isloh qilish va jinoyat qonunini liberallashtirish sharoitida jazo tizimini isloh qilish muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi kiberjinoyatchilik holatining kriminologik tushunchasini shakllantirish va ularning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash uchun zarur bo‘lgan AKT sohasidagi jinoyatlarning jinoiy-huquqiy mohiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

[2] Ushbu mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

kiberjinoyatchilikning umumiy tavsifini tahlil qilish;

kiberjinoyat institutining huquqiy tartibga solinishi genezisini o‘rganish;

kiberjinoyatchilikning obyektiv va subyektiv belgilarini tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunchiligi bo‘yicha kiberjinoyatlar uchun javobgarlikni o‘rganish;

kiberjinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va boshqa o‘xshash jinoyat tarkiblaridan farqlash masalalarini o‘rganish;

kiberjinoyatlar uchun javobgarlik sohasida jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kiberjinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan JK normalarini takomilllashtirish bilan bog‘liq jinoyat-huquqiy va kriminologik munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini kiberjinoyatlar uchun javobgarlikka oid huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy va huquqiy qarashlar hamda kriminologik tushunchalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma’lumotlar tahlili, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish, huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish, jinoyat ishi materiallarini o’rganish tadqiqot ishining ishonchligi va sifatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kriptoaktivlarning noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq qilmishlarni, ya’ni: kriptoaktivlarni g‘ayriqonuniy tarzda olish, sotish yoki ayirboshlashni; kriptoaktivlar sohasida xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar faoliyatini tegishli litsenziyasiz amalga oshirishni; anonim kriptoaktivlar bilan operatsiyalar o‘tkazishni; kriptoaktivlarning anonim mayningini yoxud mayning faoliyatini belgilangan tartibni buzgan holda amalga oshirishni jinoyatlarning mustaqil tarkibi sifatida jinoiy javobgarlikka tortish zarurati asoslangan;

kriptoaktivlar muomalasi sohasidagi qonunchilikni buzish bilan bog‘liq qilmishlarni ma’muriy huquqbuzarlikning mustaqil tarkibi sifatida mustahkamlash, nazorat-idora mexanizmlarini kuchaytirishga va kriptoaktivlardan noqonuniy foydalanishning oldini olishga qaratilgan mutanosib ma’muriy javobgarlik choralarini belgilash zarurati asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 168-moddasi uchinchi qismining “g” bandi bo‘yicha axborot tizimidan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan firibgarlikni malakalashning doktrinal mezonlari asoslab berildi. Moliya-bank tashkilotlari, jamg‘armalar va shu kabi boshqa tashkilotlar nazorati ostidagi mol-mulkni hisoblash texnikasi, aloqa vositalari, planshetlar yoki boshqa shunga o‘xshash texnik qurilmalardan foydalanib, manipulyatsiyalar qilish, jumladan, kompyuter tizimida qayta ishlanadigan, tegishli axborot tashuvchilarda saqlanadigan yoxud axborot uzatish tarmoqlari orqali uzatiladigan axborotni o‘zgartirish, shuningdek, kompyuter tizimiga bila turib yolg‘on axborot kiritish orqali firibgarlik yo‘li bilan o‘zlashtirish

ana shunday jinoyat sirasiga kiritildi. Bunday firibgarlikni axborot tizimiga g‘ayriqonuniy (ruxsatsiz) kirish yoki undan foydalanish orqali sodir etilgan o‘g‘irlikdan farqlash mezoni shakllantirildi: firibgarlikda aldangan yoki ishonchni suiiste’mol qilish ta’siridagi jabrlanuvchi mol-mulk yoki unga bo‘lgan huquqni aybdorga ixtiyoriy ravishda topshiradi va bunda mol-mulk uning egaligidan chiqib ketayotganini belgilaydi. Shuningdek, shaxsning o‘zganing mulkini keyinchalik qo‘lga kiritish maqsadida qalbaki hujjat tayyorlash uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanishi O‘zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi uchinchi qismining “g” bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi qoida qo‘shimcha ravishda asoslangan;

kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish choralarini takomillashtirish, ushbu sohadagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish va ularning oldini olishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini rivojlantirish zarurati asoslab berildi. Jumladan, axborot resurslarini yaratish va axborot tizimlarining faoliyat yuritishida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslarini mustahkamlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 46^{2}-moddasi ikkinchi qismiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish orqali sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llagan holda shaxsga doir ma’lumotlarga noqonuniy ishlov berganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilash zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Jinoyat Kodeksining “Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar” deb nomlangan VII bobini shaxsni ta’qib qilish (stalking) va kiberzo‘ravonlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 141^{4}-modda bilan hamda “Oila, yoshlar va axloqqa qarshi jinoyatlar” deb nomlangan V bobini axborot-kommunikatsiya tarmoqlari orqali voyaga yetmagan shaxsni shahvoniy xarakterdagi harakatlarga jalb qilish (onlayn-gruming) uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 127^{2}-modda bilan to‘ldirish taklifi asoslangan;

Jinoyat Kodeksiga “Kiberjinoyatlar” nomli alohida VI^{1} bo‘lim kiritish taklifi asoslangan;

Jinoyat Kodeksiga “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga qarshi jinoyatlar” deb nomlangan alohida bob kiritish, uning tarkibiga “278^{1}-modda. Raqamli axborotni egallash”, “278^{2}-modda. Raqamli axborotni berishga majburlash”, “278^{3}-modda. Foydalanish cheklangan elektron axborot resurslarini qonunga xilof ravishda tarqatish”, “278^{4}-modda. Kompyuter axborotini qonunga xilof ravishda yo‘q qilish, blokirovka qilish yoki modifikatsiya qilish” kabi jinoiy harakatlarni kiritish taklifi asoslangan;

Jinoyat Kodeksiga “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” deb nomlangan alohida bob kiritish, uning tarkibiga “278^{5}-modda. Axborotlashtirish qoidalarini buzish”, “278^{6}-modda. Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish”, “278^{7}-modda. Axborot resurslaridan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o‘tkazish maqsadida tayyorlash yoxud o‘tkazish, ulardan foydalanish yoki ularni tarqatish”, “278^{8}-modda. Zararli dasturlarni yaratish, ulardan foydalanish yoki ularni tarqatish”, “278^{9}-modda. Telekommunikatsiyalar tarmog‘idan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish”, “278^{10}-modda. Kripto aktivlar aylanmasi

sohasidagi qonunchilikni buzish", "278[11]-modda. Mayning faoliyatini noqonuniy amalga oshirish", "278[12]-modda. Internet jahon axborot tarmog‘ida umumfoydalanishdagi axborotni tarqatish qoidalarini buzish" kabi jinoiy harakatlarni kiritish taklifi asoslangan;

JKning "Atamalarning huquqiy ma'nosi" bo‘limiga "kiberjinoyatchilik", "kiberjinoyat", "kompyuter", "kompyuter tizimi" atamalarini kiritish taklifi asoslangan;

axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga aloqador jinoiy qilmishlarning ayrim tarkiblarining amaldagi moddalari sanksiyalarini kuchaytirish choralarini ko‘rish taklifi asoslangan;

JKning 48[1]-moddasi 3-qismiga "kiberjinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan ozodlikni cheklash jazosi tayinlanganda sud tomonidan mahkumga tegishli kommunikatsiya va texnologiya vositalaridan foydalanishni taqiqlash tarzidagi qo‘shimcha cheklovni yuklash" kabi o'zgartirishlar bilan to'ldirish asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro hujjatlar, bir qator xorijiy davlatlar tajribasi va zamonaviy huquqni qo‘llash amaliyoti asosida shakllantirilgan bo‘lib, 132 ta sud hujjatlari (hukm va qarorlar), 224 ta nazariyotchi va amaliyotchi olimlar, jumladan, surishtiruvchilar, tergovchilar, sudyalar, advokatlar va professor-o‘qituvchilar ishtirokida o‘tkazilgan ekspert sotsiologik tadqiqotlar natijalari, shuningdek, 2025-yil dekabr oyida 155 nafar respondentning tanlanmasi bo‘yicha muallif tomonidan o‘tkazilgan mustaqil ijtimoiy so‘rovnoma natijalarini (uchta mavzuli blokga birlashtirilgan 23 ta savoldan iborat so‘rovnoma: ijtimoiy-demografik tavsif va tajriba; xabardorlik darajasi va viktimizatsiya; amaldagi qonunchilik va istiqboldagi qarshi kurashish choralarini baholash) umumlashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati huzuridagi Davlat kiberxavfsizlik markazining 2019-2024-yillardagi statistik ma'lumotlarini tahlil qilish orqali amaliy jihatdan asoslangan; natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan ma'qullangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan qoidalar jinoyat huquqi nazariyasining rivojlanishiga, kelajakda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, yuridik oliy o‘quv yurtlarida jinoyat huquqi fanidan dars o‘tish hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda, shuningdek, ushbu tadqiqot ishi natijasi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bilan bog‘liq muammolarning hal etilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan bir qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda, Jinoyat kodeksini takomillashtirishda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish natijalari asosida:

kriptoaktivlarning noqonuniy muomalasi sohasidagi qilmishlarni kriminalizatsiya qilishga qaratilgan takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat

kodeksi loyihasining 278^8 va 278^9-moddalarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Xususan, quyidagilar inobatga olingan: kriptoaktivlarni qonunga xilof ravishda olish, sotish yoki ayirboshlash, shuningdek, kriptoaktivlar sohasidagi xizmatlar provayderlarining tegishli litsenziyasiz faoliyat yuritishi va anonim kriptoaktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normani kiritish to‘g‘risidagi taklif (278^8-modda); kriptoaktivlarning anonim mayningini va mayning faoliyatini belgilangan tartibni buzgan holda amalga oshirishni kriminalizatsiya qilish to‘g‘risidagi taklif (278^9-modda). Mazkur takliflarning qabul qilinishi kriptoaktivlar muomalasi sohasidagi qonunchilikni buzganlik va noqonuniy mayning faoliyati uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 5-iyuldagi 27/2-146-25-sonli va 2025-yil 18-iyundagi /№ 5-108416-25-sonli joriy etish dalolatnomalari);

kriptoaktivlar muomalasi sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilashga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi loyihasining 155^4-moddasi 1 va 2-qismlarini ishlab chiqishda foydalanilgan. Taqdim etilgan tashabbus nazorat-kuzatuv mexanizmlarini kuchaytirishga hamda kriptoaktivlardan noqonuniy foydalanish bilan bog‘liq qilmishlar uchun sanksiyalarni belgilashga qaratilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining 2025-yil 26-iyundagi 17/01-34-sonli joriy etish dalolatnomasi);

tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi “Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 17-sonli Qarorini tayyorlashda hisobga olingan. Xususan, mazkur Qarorning 22-bandiga doir axborot tizimidan, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan firibgarlikni malakalash, bunday firibgarlikni axborot tizimiga g‘ayriqonuniy (ruxsatsiz) kirish orqali sodir etilgan o‘g‘rilikdan chegaralash bo‘yicha takliflar, shuningdek, shaxsning keyinchalik o‘zganing mulkini qo‘lga kiritish maqsadida qalbaki hujjat tayyorlash uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanishi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi uchinchi qismi “g” bandi bilan malakalash mumkin emasligi to‘g‘risidagi qoidalar e’tiborga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 28-maydagi 08/225-25-sonli joriy etish dalolatnomasi);

tadqiqot natijalari bo‘yicha tayyorlangan takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi “Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-153-sonli Qarorini – kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish choralarini takomillashtirish, ushbu sohadagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish va kiberjinoyatlarning oldini olishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini rivojlantirish qismida – hamda O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi “Sun’iy intellektni qo‘llashda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1115-sonli Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan. Xususan, izlanuvchining takliflari mazkur Qonun 1-moddasining

4-bandini – axborot resurslarini yaratish va axborot tizimlarining faoliyat yuritishida sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy asoslarini mustahkamlash qismida – shuningdek, mazkur Qonunning 2-moddasini – sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlov berganlik uchun O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 46^2-moddasi ikkinchi qismiga tegishli o'zgartirishlar kiritish qismida – shakllantirishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasining 2026-yil 28-apreldagi 27/3-1345/4k va 27/3-1345/5k-sonli joriy etish dalolatnomalari).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan 8 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish, jumladan, 6 ta ilmiy maqola xorijiy nashrlarda, 6 ta ilmiy maqola respublika jurnallarida va 8 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 158 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyaning annotatsiyasi) qismida tadqiqoti mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **"Kiberjinoyatlar uchun javobgarlikning umumiy tavsifi va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning xorijiy tajribasi"**ga bag'ishlangan birinchi bobida tadqiqotchi tomonidan jinoyat-huquqiy muhofazaning mustaqil hodisasi sifatida kiberjinoyatchilikning ijtimoiy-huquqiy tabiati har tomonlama yoritilgan. Unda O'zbekiston Respublikasida kiberjinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik institutining shakllanishi retrospektiv tahlildan o'tkazilgan, shuningdek, dunyoning yetakchi davlatlari jinoyat qonunchiligi batafsil qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

Mazkur bobda M.X. Rustambayev, N.S. Salayev, X.R. Ochilov, A.K. Rasulov, A.S. Tursunov, T.L. Tropina, T.M. Lopatina, K.N. Yevdokimov, O.A. Zigmunt, U.V. Zinina, A.M. Tarasov, L.P. Shmatkova, A.N. Tretyakov, D.V. Puchkov, G. Yanke, N.I. Juravlenko va L.E. Shvedova, A.J. Ashworth, D.S. Wall, S. Brenner, M. Goodman, R.M. Kowalski kabi olimlarning qarashlari o'rganilib, kompyuter vositalaridan foydalangan holda sodir etiladigan talon-toroj qilmishlarni, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralarini va mazkur

toifadagi qilmishlarning kriminologik xususiyatlarini, kiberjinoyatchilikning xalqaro-huquqiy hamda qiyosiy-huquqiy o‘lchovi masalalarini, kompyuter vositalaridan foydalangan holda sodir etiladigan firibgarlik jinoyatlarining xalqaro o‘lchovdagi yuridik konstruksiyasini tadqiq etishda doktrinal tayanch sifatida foydalanildi, shuningdek, kiberjinoyatchilik tabiatining doktrinal va kriminologik jihatlari tahlil qilindi.

Muallif axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi harakatlar uchun javobgarlikni tartibga soluvchi amaldagi normalarini, xususan, Jinoyat Kodeksining XX[1] bobining 278[1]–278[7]-moddalarini kompleks doktrinal tahlil qilgan. Tadqiqotchi kiberjinoyatlarni tizimli ravishda uch turkumga ajratadi: bevosita kompyuter tizimlariga tajovuzda ifodalangan qilmishlar – “toza kompyuter” (cyber-dependent); raqamli texnologiyalar ta’sirida o‘zgargan an’anaviy jinoyatlar – “instrumental” (cyber-enabled) va raqamli muhit faqat aloqa kanali sifatida xizmat qiladigan “yordamchi” (cyber-assisted) qilmishlar. Muallifning nuqtayi nazariga ko‘ra, “evolyutsion-tahririy” yondashuv o‘z salohiyatini butunlay tugatgan: u havola normalarning ko‘payib ketishiga olib keladi, tarkiblar o‘rtasida raqobatni yuzaga keltiradi va ijtimoiy xavfli qilmishlarning butun bir toifasini jinoyat-huquqiy himoyadan chetda qoldiradi. Tadqiqotchi texnik omil bilan murakkablashtirilgan an’anaviy mulkiy tajovuzlar paradigmasi haqidagi yondashuvga qat’iyan qo‘shilmaydi va kiberjinoyatchilikning o‘ziga xos belgilari ya’ni tajovuz obyektining nomoddiy xususiyati, eksterritoriallik, harakatlarning avtomatlashganligi, subyektning maxsus ko’nikmaga egaligi, 85–95 foiz oralig‘idagi latentlik – Jinoyat kodeksida alohida bo‘limga ajratishni taqozo etadigan sifat jihatidan yangi jinoyat-huquqiy hodisani shakllantirshni isbotlagan. Muallif tomonidan mazkur konsepsiyalarni respublikaning huquqiy tizimi sharoitlariga moslashuvi asoslantirilgan.

Bundan tashqari, muallif tomonidan o‘tkazgan retrospektiv tahlil natijasida respublikada kiberjinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik institutining shakllanishini uch bosqichga ajratgan holda davrlashtiradi. Bular: institutsionalgacha bo‘lgan davr (1994–2007-yillar) ya’ni kiberhujumlar Jinoyat kodeksining umumiy moddalari bo‘yicha malakalangan, maxsus jinoiy-huquqiy normalar mavjud bo‘lmagan davr; shakllanish bosqichi (2007–2022-yillar) ya’ni “Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” deb nomlangan XX[1]-bobning kiritilishi; modernizatsiya bosqichi (2022-yildan hozirgi kunga qadar) ya’ni “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi, Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish milliy strategiyasining shakllantirilishi hamda yangi Jinoyat kodeksiga 278[8]–278[9]-moddalarning kiritilishi asoslantirilgan. Bobda kiberjinoyatchilik firibgarlik, ekstremistik, terroristik, qo‘poruvchilik va shaxs daxlsizligiga tajovuz qiluvchi harakatlarni birlashtiradigan o‘ziga xos ontologiyaga ega ekanligi haqidagi qarash asoslantirilgan. Dissertatsiyada Jinoyat kodeksining amaldagi tahririda “kompyuter tizimi” o‘rniga “EHM” kabi terminologik jihatdan eskirgan tushunchalardan foydalanilgani, shuningdek, “botnet”, “DDoS-hujum”, “zararli dasturiy ta’minot”, “o‘ta muhim axborot infratuzilmasi”, “kriptoaktiv”, “dipfeyk”, “ijtimoiy muhandislik” kabi tushunchalarning qonuniy ta’riflari mavjud emasligi tanqidiy baholangan, natijada

muallif kodeksga norma-ta’rif sifatida kiritilishi lozim bo‘lgan yagona terminologik apparatni – “Kiberjinoyatchilikning kategorial lug‘ati” konsepsiyasini taklif etgan.

Tadqiqot doirasida dissertant Rossiya Federatsiyasi (RF JK 28-bobi), Moldova Respublikasi, Buyuk Britaniya (2006-yilgi Firibgarlik to‘g‘risidagi qonun, 1990-yilgi Kompyuterdan qonunga xilof ravishda foydalanish to‘g‘risidagi qonun), Amerika Qo‘shma Shtatlari (1986-yilgi Kompyuter firibgarligi va suiiste’molchiligi to‘g‘risidagi qonun), Germaniya Federativ Respublikasi (GJK 202a, 202b, 202c, 263a, 303a, 303b-moddalari), Avstraliya (2001-yilgi Kiberjinoyatlar to‘g‘risidagi qonun), Qozog‘iston Respublikasi (Qozog‘iston Respublikasi JK 7-bobi), Koreya Respublikasi, Yaponiya, Singapur kabi mamlakatlarning qonunchiligini, shuningdek, Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi Budapesht konvensiyasini batafsil qiyosiy-huquqiy tahlil qildi. Tadqiqotchi metodologik cheklovlarga qarshi o‘laroq, “huquqiy filtr” tamoyiliga asoslangan mualliflik implementatsiya modelini ishlab chiqish zarurati asoslantirilgan. Unga ko‘ra, xorijiy tajribani o‘zlashtirishga faqat to‘rtta majmuaviy mezonga – milliy huquqiy an’analarga moslik, konstitutsiyaviy qadriyatlarga muvofiqlik, donor mamlakatdagi empirik samaradorlik va qo‘llash uchun infratuzilmaviy tayyorgarlikning mavjudligi shartlariga rioya qilingan taqdirdagina yo‘l qo‘yiladi. Izlanuvchi yigirmadan ortiq aniq retsepsiyadan iborat normalarni asoslab beradi: dipfeyklardan foydalangan holda sodir etiladigan firibgarlik, kriptoaktivlar bilan bog‘liq harakatlar, “dropperlar” faoliyati, SIM-kartalar bilan bog‘liq manipulyatsiyalar, aloqa xizmatlari provayderlarining korporativ javobgarligi hal etilishi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy jihatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida muallif tomonidan kiberjinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilarini chuqur doktrinal tahlil qilgan. Shuningdek, unda turdosh tarkiblarni malakalash va chegaralash masalalari yoritilib, kodeksni tizimli isloh qilish bo‘yicha takliflar majmui ishlab chiqilgan.

Muallif o‘z ishida kiberjinoyatlarning obyektiv tomonini o‘ziga xos doktrinal tahlil qiladi. U hukmron doktrina vakillari – A.I. Rarog, N.A. Lopashenko va S.A. Pashin bilan ilmiy bahsga kirishadi. Mazkur olimlar zararli dasturlarni faqat jinoyat sodir etish vositasi deb ta’riflaganlar. Ularning qarashicha, zararli dasturiy ta’minot o‘zining huquqiy rejimiga ko‘ra, klassik jinoyat-huquqiy ma’nodagi jinoyat quroliga (pichoq, o‘qotar qurol, ochqich bilan qiyoslash mumkin) tenglashtirilgan. Tadqiqotchi bu yondashuvga mutlaqo qo‘shilmaydi va konseptual jihatdan butunlay boshqacha yondashuvni asoslab bergan. Unga ko‘ra, zararli dasturlar o‘ziga xos (“sui generis”) tajovuz predmeti sifatida qaralishi lozim. Ushbu predmet uchta asosiy belgiga ega: maqsadga yo‘naltirilganlik (dastur boshidanoq muayyan bir buzg‘unchi natijaga erishishga dasturlangan bo‘ladi), buzg‘unchilik salohiyati (ko‘lami cheklanmagan zarar yetkazish qobiliyati) va avtonomlik (ishga tushirilgandan so‘ng o‘z yaratuvchisining irodasidan mustaqil harakat qila olishi). Muallifning pozitsiyasi zamonaviy polimorf viruslar, sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan o‘z-o‘zini o‘rganuvchi zararli modullar va avtonom botnetlar raqamli muhitda kvazi-subyektlik xususiyatiga ega bo‘lgani uchun

“qurol”ning klassik tushunchasiga sig‘masligi bilan quvvatlanadi. Muallif zararli kodning avtonom ishlash xususiyati uni har qanday moddiy quroldan tubdan farqlashini va alohida jinoyat-huquqiy rejimni ya’ni Jinoyat kodeksiga zararli kodni tayyorlash, tarqatish va undan foydalanganlik uchun tabaqalashtirilgan sanksiyalarga ega mustaqil jinoyat tarkiblarini kiritishni talab qilishini dalillar bilan isbotlaydi. Muallif “kompyuter viruslari”, “qurtlar”, “troyan dasturlar”, “josuslik dasturlar (spyware)”, “tovlamachi dasturlar (ransomware)”, “klaviatura josuslari (keyloggers)”, “masofaviy boshqaruv vositalari”, “kriptojeking dasturlar (cryptojackers)” kabi batafsil jinoyat-huquqiy tavsif bergan. Shuningdek, u ommaviy “fishing” va texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlariga tajovuz qilganlik uchun javobgarlik belgilash zarurati asoslab bergan.

Tadqiqotchi tomonidan kiberjinoyat subyektining ijtimoiy-demografik, psixologik, motivatsion va xulq-atvoriga oid parametrlarini o‘z ichiga olgan kompleks kriminologik portreti shakllantirilgan. O‘zbekiston Respublikasida kiberjinoyatning odatiy subyekti AKT sohasida maxsus bilimlarga ega, aksariyat hollarda ilgari sudlanmagan, 16 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan erkak kishi ekanligi asoslantirib berilgan. Muallif kiberjinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik yoshini pasaytirish maqsadga muvofiq emas deb hisoblovchi konservativ yondashuv vakillari – A.I. Dolgova, Yu.M. Antonyan va G.A. Avanesovlar bilan ilmiy bahsga kirishadi. Ularning fikricha, voyaga yetmaganlarning “raqamli sohada yetukmasligi” ularni bunday qilmishlar uchun javobgarlikka tortishga to‘sqinlik qiladi. Muallif voyaga yetmaganlarning javobgarligi muammosiga, asosan, amaldagi yosh chegarasi doirasida o’zgartirishlar kiritilishini asoslagan. Izlanuvchi o‘zining 2023-yildan 2025-yilgacha mamlakatda kiberjinoyat sodir etgan shaxslarning 14 yoshdan 16 yosh yoki 23,4 foizini mazkur toifadagi shaxslar tashkil etgani haqidagi empirik ma’lumotlarga tayanib, Jinoyat kodeksining 17-moddasi ikkinchi qismini to‘ldirish orqali kiberjinoyatlarning ayrim turlari uchun jinoiy javobgarlik yoshini 14 yoshdan belgilash zarurligini asoslagan. Raqamli muhitga nisbatan muallifning pozitsiyasi aniq: aynan yuqorida sanab o‘tilgan yosh chegarasi eng yuqori raqamli savodxonlikni namoyon etadi va bu ko‘pincha voyaga yetgan subyektlarning savodxonligidan ham ustun turishi asoslangan. Bu esa umumiy yosh chegarasini saqlab qolishni kriminologik jihatdan ahamiyatsizligini asoslagan.

Mazkur ishda muallif Jinoyat kodeksini tizimli isloh qilishning konseptual modelini ishlab chiqish taklif etilgan. Muallif kodeksga Maxsus qismning mutlaqo yangi tarkibiy unsur sifatida “Kiberjinoyatlar” nomli alohida 6^1-bo‘limni; barcha “sof kompyuter” jinoyat tarkiblarini o‘zida jamlagan “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga qarshi jinoyatlar” nomli alohida bobni hamda stalking va kiberzo‘ravonlik uchun javobgarlikni belgilovchi normalarni kiritish zarurligini asoslagan.

Tadqiqotchi, kompyuter modifikatsiyasi va kompyuter sabotaji to‘g‘risidagi normalarni mustaqil va bir-biri bilan raqobatlashmaydigan tarkiblar sifatida ko‘ruvchi S.V. Maksimov va G.A. Yesakovning qarashlariga zid o‘laroq o‘z pozitsiyasini asoslagan. Muallifning nuqtayi nazari bevosita huquqni qo‘llash amaliyoti uchun ahamiyatli bo‘lib, kompyuter modifikatsiyasini nazarda tutuvchi modda dispozitsiyasini kengaytirish bilan bir vaqtda Jinoyat kodeksidan kompyuter

sabotaji to‘g‘risidagi normani chiqarib tashlash taklifini asoslagan. Shuningdek, muallif jinoyat-huquqiy himoya darajasida ikki bosqichli autentifikatsiyaga oid majburiy talablarni belgilash, kiberjinoyatlar bo‘yicha ishlarni ko‘ruvchi, majburiy texnik mutaxassislikka ega bo‘lgan ixtisoslashtirilgan sudyalar institutini joriy qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida tezkor faoliyatni amalga oshiruvchi mobil kriminalistik guruhlar tuzish taklif qilingan.

Dissertatsiyaning **“Kiberjinoyatchilikning kriminologik tavsifi”** deb nomlangan uchinchi bobida kiberjinoyatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabab va shart-sharoitlar tahlil qilingan, kiberjinoiy faoliyat subyektlarining mualliflik tipologiyasi ishlab chiqilgan hamda respublikada kiberjinoyatchilikning ko‘p bosqichli profilaktikasiga doir o‘ziga xos konsepsiya shakllantirilgan.

Muallif kiberjinoyatchilik determinatsiyasining o‘ziga xos integral to‘rt omilli modelini taklif qilgan. Ushbu model quyidagilarni o‘zida birlashtiradi: ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ya’ni raqamli tengsizlik, IT-mutaxassislar o‘rtasidagi ishsizlik, kriptoiqtisodiyotning yashirin sektori; huquqiy va institutsional omillar, xususan, jinoyat qonunchiligidagi bo‘shliqlar, idoralararo hamkorlikning zaifligi, ixtisoslashtirilgan tergov bo‘linmalarining yo‘qligi; texnologik omillar, jumladan, “Crime-as-a-Service” modeli bo‘yicha zararli dasturiy ta’minotdan foydalanish imkoniyatining ortishi, sun’iy intellekt va “dipfeyk” texnologiyalarining tarqalishi, “DarkNet” segmentida anonimlik; psixologik va viktimologik omillar, ya’ni aholining raqamli savodxonlik darajasi pastligi, “raqamli ishonch sindromi” hamda keksa yoshdagi shaxslarning viktimologik himoyasizligi. Muallif iqtisodiy-deterministik yondashuvni himoya qilib, kiberjinoyatchilikni faqat ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog‘laydigan monokauzal konsepsiyalar tarafdorlari V.V. Luneyev va Ya.I. Gilinskiy, shuningdek, texnokratik konsepsiyaga tayanib, uni asosan raqamli foydalanish imkoniyati darajasi bilan izohlaydigan Peter Grabosky bilan ilmiy munozaraga kirishadi. Muallifning fikricha, iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy-madaniy determinantlar teng darajada ta’sir ko‘rsatadigan O‘zbekiston Respublikasida birorta ham monofaktorli model kiberjinoyatchilikning tuzilishi va dinamikasini tushuntirib bera olmsligini asoslagan. Muallif tomonidan o‘tkazilgan mustaqil sotsiologik tadqiqotga (tanlanma hajmi – O‘zbekiston Respublikasining 12 ta hududidan 1 247 nafar respondent, davri – 2024–2025-yillar) ko‘ra, respondentlarning atigi 16,1 foizi kiberjinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat qonunchiligini bilish darajasini qoniqarli deb baholashgan, 21,3 foizi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun talablaridan xabardor ekanligini, 31,0 foizi kiberfiribgarlar harakatlarini aniqlay olishiga ishonishligini, 43,7 foizi so‘nggi bir yil ichida kiberfiribgarlik harakatlariga duch kelishganligini, 12,4 foizi esa kiberjinoyat qurboniga aylanganligini ma’lum qilishgan. Shu bilan birga, so‘rovda qatnashganlarning 79,3 foizi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga “Kiberjinoyatlar” nomli alohida bo‘lim kiritish zaruratini, 68,9 foizi ayrim kiberjinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik yoshini pasaytirish zaruratini, 84,2 foizi esa “dropperlar”ning yagona reyestrini yaratish taklifini qo‘llab-quvvatlashgan. Muallifning ishonch bildirishicha, keltirilgan empirik ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi kriminologiya faniga qo‘shilgan mustaqil hissa bo‘lib, mamlakatimiz

doktrinasida keng tarqalgan aholining huquqiy ma’rifati bo‘yicha amaldagi chora-tadbirlarning “yetarliligi” to‘g‘risidagi fikrni rad etadi.

To‘plangan ma’lumotlar asosida kiberjinoiy faoliyati subyektlarining kompleks tipologiyasi tushuntirib berilgan bo‘lib, u “xaker-tadqiqotchi” (grey-hat), “xaker-buzg‘unchi” (black-hat), “karder”, “insayder”, “uyushgan kiberjinoiy guruh a’zosi”, “skript-kiddi”, “Crime-as-a-Service operatori” kabi toifalarni o‘z ichiga oladi va ta’lim, xulq-atvor, psixologik hamda retsidiv mezonlari bo‘yicha tabaqalashtirish zarurati asoslagan. Muallif kiberjinoyatchini asosan yolg‘iz ishqiboz siymosida ko‘rsatuvchi “romantizatsiyalashgan” maktab vakillari Paul Taylor va Steven Levy bilan ilmiy polemikaga kirishadi. Ularning qarashlariga ko‘ra, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash individual ta’sir choralariga yo‘naltirilishi lozim. Ushbu pozitsiyaga qarshi o‘laroq, muallif 2020-yildan hozirgi kunga qadar davom etayotgan zamonaviy bosqich kiberjinoyatchilikning “demokratlashuvi” va elitar xakerlardan ommaviy skript-kiddilarga o‘tish, yashirin xizmatlarni tijoratlashtirish, “DarkNet” segmentida yillik aylanmasi 1,5 milliard dollardan ortiq bo‘lgan transmilliy raqamli bozorlarning shakllanishi bilan tavsiflanishini ta’kidlagan. Muallifning pozitsiyasi shundan iboratki, “yolg‘iz jinoyatchi”ga qaratilgan an’anaviy kurash modeli o‘z samarasini butkul yo‘qotgan va uning o‘rnini izlanuvchi tomonidan barcha mavjud doktrinal yondashuvlarga qarama-qarshi o‘laroq ishlab chiqilgan konseptsiya – tarmoqli reaksiya modeli egallashi kerakligi taklif etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan kiberjinoyatchilikning o‘zaro bog‘liq beshta darajani o‘z ichiga olgan ko‘p bosqichli profilaktika konsepsiyasini asoslagan. Umumdavlat darajasida kiberjinoyatchilikning yagona kriminologik monitoring markazini yaratish, kiberjinoyatlardan jabrlanganlarga yetkazilgan zararni qoplash jamg‘armasini ta’sis etish, “dropperlar”ning yagona milliy reyestrini shakllantirish taklif etilgan. Tarmoq darajasida o‘ta muhim axborot infratuzilmasi subyektlari uchun majburiy kibersug‘urtani joriy etish, “Bug Bounty” institutlarini joriy etish, majburiy korporativ o‘qitish standartlarini joriy qilish taklif etilgan. Ta’lim darajasida o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimiga “raqamli gigiyena” milliy dasturini joriy etish, barcha bosqichdagi o‘quv dasturlariga “Kiberxavfsizlik asoslari” majburiy kursini kiritish taklif etilgan. Vertikal tizimda mahallalar miqyosida manzilli profilaktikaga doir tajriba loyihalarini amalga oshirish (videokuzatuv tizimlari, SOS-tugmalarini o‘rnatish, oilalar va voyaga yetmaganlar bilan manzilli ishlash, fuqarolar yig‘inlarini kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda jalb etish), xalqaro darajada esa Budapesht konvensiyasi hamda G7ning 24/7, Yevropol va Interpol mexanizmlariga qo‘shilish taklif etilgan.

Bundan tashqari, muallif repressiv yondashuv tarafdori E.F. Pobegaylo bilan bahsga kirishib, rivojlangan profilaktika tizimi mavjud bo‘lmagan taqdirda, na sanksiyalarni kuchaytirish, na jinoiy jazolanadigan qilmishlar ro‘yxatini kengaytirish kiberjinoyatchilik darajasini pasaytira olmasligini asoslagan.

Muallif transchegaraviy kiberhujumlar bo‘yicha majburiy yurisdiksiyaga ega bo‘lgan, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash muvofiqlashtiruvchi ixtisoslashtirilgan xalqaro institut – “KiberBMT”ni yaratish konsepsiyasini asoslagan. Muallif imperativ yurisdiksiyaga ega ixtisoslashtirilgan institutning mavjud emasligi,

transchegaraviy kiberjinoyatchilikning o‘sishiga sabab bo‘layotgan asosiy institutsional omillardan biri ekanligini asoslantirilgan, birgina 2025-yilda jahon miqyosidagi zarar 10,5 trillion AQSH dollariga yetganligiga ta’rif bergan holda, “KiberBMT”ni ta’sis etish O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi tashabbusi bo‘lishi va uning BMTning Raqamli xavfsizlik bo‘yicha xalqaro tashabbusidagi faol ishtirokchi sifatidagi rolini yanada rivojlantirishi taklif etilgan.

Mazkur dissertatsiya natijalaridan “Toshkent shahar Shayxontohur tumanida kiberjinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishning kriminologik metodikasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan. Shunga ko‘ra, ushbu tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ–1-son “Respublika mahallalarida xavfsiz muhit yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2023-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini yaratishga muayyan darajada xizmat qiladi.

XULOSA

“Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari” mavzusidagi dissertatsiya tadqiqoti natijasida jinoyat qonunchiligi normalarini takomillashtirish va huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan umumiy-nazariy xulosalar, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Xulosalar uchta umumiy sohani qamrab oladi va quyidagilardan iborat:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. O‘zbekistonda kiberjinoyatchilikka samarali qarshi kurashish milliy qonunchilikni takomillashtirishni, kiberxavfsizlikning yagona standartlari asosida xalqaro hamkorlikni kuchaytirishni hamda profilaktika ishlariga ta’lim va jamoat institutlarini jalb etishni taqozo etadi.

2. Tajovuz obyektining nomoddiy tabiati, yuqori darajadagi latentlik va yurisdiksiya hamda ekstraditsiya masalalarini murakkablashtiradigan transmilliy xususiyat kiberjinoyatlarning asosiy belgilaridir. Ularning sodir etilishi yuqori texnologiyalar, anonimlashtirish vositalari va sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida jinoyat subyektini aniqlashni qiyinlashtiradi, harakatlarning bir zumda tarqalishiga va avtomatlashuviga sabab bo‘ladi. Shakllarning doimiy o‘zgarib borishi va subyektlar tarkibining kengayishi (“Crime-as-a-Service” modelini ham qo‘shganda) jinoyatni huquqiy jihatdan tavsiflashda qiyinchiliklar tug‘diradi va qonunchilik rivojidan o‘zib ketadigan aralash tarkiblarning shakllanishiga olib keladi.

3. Muallif JKning 278^4-moddasi JKning 278^5-moddasida nazarda tutilgan jinoyat unsurlarini qamrab olishini asoslab beradi. Kompyuter axborotini o‘zgartirish jinoyati tarkibiga kompyuter sabotaji harakati ham kirganligi sababli, ularni bitta moddaga birlashtirish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan.

II. Qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar:

1. JKning “Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar” nomli V bobini voyaga yetmagan shaxsni axborot-kommunikatsiya tarmoqlari orqali jinsiy xarakterdagi harakatlarga jalb qilish (onlayn-gruming) uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 127²-modda bilan to‘ldirish va ularni quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

“127²-modda. Voyaga yetmagan shaxsni axborot-kommunikatsiya tarmoqlari orqali jinsiy xarakterdagi harakatlarga jalb qilish (onlayn-gruming)

“Voyaga yetmagan shaxsni aloqa vositalaridan foydalangan holda jinsiy xarakterdagi harakatlarni sodir etishga yoki muhokama qilishga undash, shu maqsadda uchrashuv tashkil etish yoki unga tayyorgarlik ko‘rish, intim xarakterdagi foto, video yoki boshqa materiallarni talab qilish, so‘rash yoxud olishga urinish –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu harakatlar:

a) takroran;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa;

v) yashirin yoki anonim usullardan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa;

g) moddiy manfaat evaziga yoxud tovlamachilik bilan bog‘liq holda sodir etilgan bo‘lsa,–

majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, –

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

2. JKning “Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar” nomli VII bobini shaxsni ta’qib qilish (stalking) va kiberzo‘ravonlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 141⁴-modda bilan to‘ldirish va ularni quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

“141⁴-modda. Shaxsni ta’qib qilish (stalking)

Shaxsni uning irodasiga xilof ravishda muntazam kuzatish, uni ta’qib qilish, u bilan bevosita yoki bilvosita aloqa o‘rnatishga urinish, shuningdek, aloqa vositalaridan foydalanib, bezovta qilish, kamsitish, ruhiy bosim o‘tkazishda ifodalanadigan harakatlarni yoxud uning yoki yaqinlarining xavfsizligi, sog‘lig‘i uchun xavotir uyg‘otadigan boshqa harakatlarni sodir etish –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa;

b) takroran;

v) g‘arazgo‘ylik yoki boshqa pastkash niyatlarda sodir etilgan bo‘lsa;

g) xizmat mavqeyidan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa;

d) voyaga yetmagan shaxsga yoxud homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, –

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

3. JKni “Kiberjinoyatlar” nomli VI[1] bo‘lim bilan to‘ldirish hamda unga “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga qarshi jinoyatlar” nomli XX[1] bob va “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” nomli XX[2] bobni kiritish orqali o‘zgartirishlar kiritish taklif etilmoqda;

4. JKning “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga qarshi jinoyatlar” nomli XX[1] bobini 278[1], 278[2], 278[3]-moddalar bilan to‘ldirish va ularni quyidagi tahrirda bayon etish taklif etilmoqda:

“278[1]-modda. Raqamli axborotni egallash

Raqamli axborotni qasddan egallash fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazishga sabab bo‘lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

“278[2]-modda. Raqamli axborotni berishga majburlash

Zo‘rlik ishlatish yoxud mol-mulkni yo‘q qilish yoki unga shikast yetkazish tahdidi ostida, shuningdek jabrlanuvchini yoki uning yaqinlarini sharmanda qiladigan ma’lumotlarni yoxud oshkor etilishi jabrlanuvchining yoki uning yaqinlarining manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan boshqa ma’lumotlarni tarqatish tahdidi bilan elektron tashuvchida saqlanayotgan, qonun bilan muhofaza qilinadigan raqamli axborotni berishga majburlash –

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

“278[3]-modda. Foydalanishi cheklangan elektron axborot resurslarini qonunga xilof ravishda tarqatish

Fuqarolarning shaxsga doir ma’lumotlarini yoxud O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan foydalanishi cheklangan boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan elektron axborot resurslarini qonunga xilof ravishda tarqatish, –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

b) g‘arazgo‘ylik niyatlarda;

v) shaxs tomonidan o‘z mansab mavqeyidan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan harakatlar:

a) jinoiy guruh tomonidan sodir etilgan bo‘lsa;

b) og‘ir oqibatlarga olib kelgan bo‘lsa, –

uch yildan yetti yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

5. JKdan 278[5]-moddani (“Kompyuter sabotaji”) chiqarib tashlash va JKning 278[4]-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

“278[4]-modda. Kompyuter axborotini qonunga xilof ravishda yo‘q qilish, to‘sish yoki o‘zgartirish

Kompyuter axborotini qasddan yo‘q qilish, to‘sish yoki o‘zgartirish, uni yaroqsiz holga keltirish yoki kompyuter texnikasini ishdan chiqarish, kompyuter tizimi va uning tarmoqlari ishini buzish, shuningdek, unga bila turib yolg‘on axborot kiritish kompyuter ishining buzilishiga olib kelib, fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu harakatlar:

a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) takroran sodir etilgan bo‘lsa, –

ikki yilgacha ish haqidan ushlab qolish yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

6. JKning XX[2] bobi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar”ni 278[5], 278[6], 278[7], 278[8], 278[9], 278[10], 278[11], 278[12]-moddalar bilan to‘ldirish va quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

“278[5]-modda. Axborot resurslaridan foydalanish qoidalarini buzish, ya’ni axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari va banklarini ularni himoya qilish bo‘yicha belgilangan choralarni ko‘rmasdan yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish, bunday harakatlar ulardan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxs tomonidan sodir etilib, fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazishga sabab bo‘lsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud olti oygacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi”.

“278[6]-modda. Kompyuter axborotiga g‘ayriqonuniy (ruxsatsiz) kirish

Kompyuter axborotiga, ya’ni kompyuterda yoki **ma’lumotlarga ishlov berishning boshqa qurilmalarida** joylashgan axborotga g‘ayriqonuniy (ruxsatsiz) kirish, agar bu harakat axborotning yo‘q qilinishiga, bloklanishiga, undan nusxa ko‘chirilishiga yoxud egallab olinishiga, hisoblash texnikasi vositalarining normal ishlashi buzilishiga sabab bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha muddatga ish haqidan ushlab qolish bilan jazolanadi.

Ushbu harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

b) takroran;

v) mansab mavqeyidan foydalanib;

g) uyushgan jinoiy guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi”.

“278[7]-modda. Axborot resurslariga g‘ayriqonuniy (ruxsatsiz) kirish uchun maxsus vositalarni sotish maqsadida tayyorlash yoxud sotish, ulardan foydalanish yoki ularni tarqatish

Axborot resurslariga g‘ayriqonuniy (ruxsatsiz) kirish uchun maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini sotish maqsadida tayyorlash yoxud sotish, ulardan **foydalanish yoki ularni tarqatish,** –

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

b) takroran;

v) mansab mavqeyidan foydalanib;

g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi”.

“278[8]-modda. Zararli dasturiy yoki apparat vositalarini yaratish, ulardan foydalanish yoki ularni tarqatish

Axborot tizimida saqlanayotgan yoki uzatilayotgan axborotni ruxsatsiz yo‘q qilish, bloklash, o‘zgartirish, undan nusxa ko‘chirish yoki uni egallab olish, uskunani ishdan chiqarish maqsadida dasturiy yoki apparat vositalarini yaratish yoxud mavjud dasturlar yoki dasturiy mahsulotlarga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, shu maqsadlarda maxsus virusli dasturlarni ishlab chiqish, ulardan qasddan foydalanish yoki ularni tarqatish–

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu harakatlar:

a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) takroran;

g) uyushgan **jinoiy** guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilsa, –

ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

“278[9]-modda. Telekommunikatsiya tarmog‘iga g‘ayriqonuniy (ruxsatsiz) kirish

Telekommunikatsiya tarmog‘iga belgilangan himoya tizimlarini chetlab o‘tgan holda undan foydalanish va xalqaro trafikni o‘tkazish maqsadida g‘ayriqonuniy (ruxsatsiz) kirish, shuningdek, shu maqsadlar uchun mo‘ljallangan maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini saqlash, **tarqatish** va ularning ishlashi uchun sharoit

yaratish, –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

b) takroran;

v) mansab mavqeyidan foydalanib;

g) uyushgan **jinoiy** guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

“278[10]-modda. Kripto aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish

Kripto aktivlarni g‘ayriqonuniy olish, sotish yoki ayirboshlash, belgilangan tartibda litsenziya olmasdan kripto aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish, xuddi shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu harakatlar:

a) takroran;

b) ko‘p miqdorda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu harakatlar:

a) juda ko‘p miqdorda;

b) mansab mavqeyidan foydalanib;

v) uyushgan jinoiy guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilsa, –

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

“278[11]-modda. Mayning faoliyatini noqonuniy amalga oshirish

Bunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin anonim kripto aktivlar mayningi bilan shug‘ullanish yoki mayningni belgilangan tartibni buzgan holda amalga oshirish –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yashirin mayningni amalga oshirish–

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlarning:

a) takroran;

b) juda ko‘p miqdorda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilishi —

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlarning:

a) xizmat mavqeidan foydalangan holda;

b) uyushgan jinoiy guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilishi –

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

“278[12]-modda. Internet jahon axborot tarmog‘ida umumfoydalanishdagi axborotni tarqatish qoidalarini buzish

Internet jahon axborot tarmog‘ida umumfoydalanishdagi axborotni tarqatish qoidalarini qasddan buzish orqali fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazish –

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

7. JKning VIII bo‘limini quyidagi mazmundagi atamalar bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“Kiberjinoyat – axborot texnologiyalari, kompyuter dasturlari, kompyuter tarmoqlari ishiga aybli ravishda noqonuniy aralashish, kompyuter ma’lumotlarini ruxsatsiz o‘zgartirish, shuningdek, kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari va dasturlari yordamida yoki ular vositasida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida modellashtirilgan axborot makoniga kirishning boshqa qurilmalari yordamida yoki ular vositasida sodir etiladigan boshqa ijtimoiy xavfli noqonuniy qilmishlardir”.

“Kiberjinoyatchilik – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yoki ulardan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatchilik, shuningdek, axborot makonida yoki unga qarshi sodir etiladigan, shaxs, jamiyat va davlatga tahdid soladigan jinoyatlardir”.

“Kompyuter – axborotni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlaydigan har qanday qurilmadir”.

“Kompyuter tizimi – axborot hamda uni qayta ishlashni ta’minlovchi dasturiy, kompyuter va texnik vositalardir”.

III. Kiberhuquqbuzarliklarning kriminologik jihatlarini takomillashtirish va ularning oldini olishga qaratilgan taklif va tavsiyalar:

1. Raqamli tahdidlarni monitoring qilish, o‘ta muhim sohalardagi axborot tizimlari va xodimlarni majburiy sertifikatlash, axborotlashtirish to‘g‘risidagi milliy qonunchilikka xalqaro normalarni implementatsiya qilish, shuningdek, ta’lim dasturlari va mijozlarni kiberxatarlar haqida muntazam xabardor qilish orqali aholining raqamli savodxonligini oshirishni nazarda tutuvchi **Kiberjinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha davlat strategiyasini** ishlab chiqish taklif etiladi;

2. **Maktablar (8–11-sinflar), kollejlar va oliy ta’lim muassasalarida “Kibergigiyena va raqamli xavfsizlik” majburiy kurs**ini joriy etgan holda,

internet madaniyatini shakllantirish bo‘yicha davlat dasturini yaratish;

3. **Xavf darajasi yuqori bo‘lgan guruhlarga yo‘naltirilgan** kampaniyalar orqali **viktimologik profilaktikani amalga oshirish** taklif etiladi: pensionerlar (“bank”dan kelayotgan soxta qo‘ng‘iroqlar), yoshlar (psevdo-treyding, onlayn-kazino), tadbirkorlar (BEC-hujumlar, qalbaki hisobvaraqlar);

4. Potensial **huquqbuzarlarni dastlabki bosqichda aniqlash (profiling) tizimini yaratish,** o‘zbek va rus tillaridagi xakerlik forumlari, Telegram/Discord chatlarini monitoring qilish, huquqbuzarlik sodir etgani aniqlangan voyaga yetmaganlarning og‘irroq jinoyatlarga o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ular bilan profilaktik ishlar olib borish;

5. **Quyi bo‘g‘indagi ishlar uchun mahalla infratuzilmasi va profilaktika inspektorlaridan foydalanish** taklif etiladi: tushuntirish yig‘inlari, eslatmalar, ilgari firibgarlik qurboni bo‘lgan shaxslar bilan individual ishlash (takroriy viktimizatsiya – barqaror hodisa);

6. **Ixtisoslashtirilgan huquqni muhofaza qiluvchi bo‘linmalarni kuchaytirish** doirasida IIV, DXX, Bosh prokuratura va Markaziy bank Kiberxavfsizlik markazlari negizida doimiy tarkibga, umumiy bayonnomalarga ega bo‘lgan hamda **Markaziy bankning firibgarlikka qarshi kurashish (antifrod)** tizimidan foydalana oladigan yagona idoralararo **tezkor shtabni tashkil etish** taklif etiladi;

7. IIV Akademiyasi va TDYUda “**Kiberjinoyatchilik kriminologiyasi va raqamli kriminalistika”** magistratura yo‘nalishini ochish hamda **tergovchi va tezkor xodimlarni** har yili 72 soatlik dastur bo‘yicha majburiy **qayta tayyorlovdan o‘tkazish**ni joriy etish;

8. Mobil qurilmalardan ma’lumotlarni chiqarib olish, kriptohamyonlarni tahlil qilish va dipfeyklar bilan ishlash uchun uskunalar bilan jihozlangan **hududiy mobil raqamli kriminalistika guruhlari**ni (har bir viloyatga kamida bittadan) tashkil etish;

9. **O‘rta bo‘g‘in sudlarida** jinoyat ishlari bo‘yicha sudyalarni **AKT sohasiga ixtisoslashtirish**ni joriy etish;

10. **Viktimologik yo‘nalish** va **kompensatsiya mexanizmlari doirasida,** agar mijozning qo‘pol ehtiyotsizligi isbotlanmagan bo‘lsa, kartadan pul o‘g‘irlanganda bankning **javobgarligi prezumpsiyasini qonunchilikda mustahkamlash** taklif etiladi (Yevropa Ittifoqining PSD2 modeli asosida);

11. Moliyaviy tashkilotlarning ajratmalari hamda kiberxavfsizlikni buzishga oid ishlar bo‘yicha undirilgan jarimalar hisobidan **Kiberjinoyatlardan yetkazilgan zararni qoplash jamg‘armasi**ni tashkil etish;

12. 102 qisqa raqamiga murojaat qilingan vaqtdan boshlab oluvchilarning hisobvaraqlaridagi mablag‘larni “**muzlatish” muddatini 2 soatgacha qisqartirish;**

13. **Majburiy viktimologik ko‘mak**ni joriy etish: yirik firibgarlik qurbonlariga, ayniqsa, keksa yoshdagi fuqarolarga psixologik yordam ko‘rsatish;

14. **“Kulrang hudud”ni – “dropper” hisobvaraqlari, SIM-kartalar, kriptoaktivlarni tartibga solish** bo‘yicha hisobvaraq ochish va SIM-karta ro‘yxatdan o‘tkazishni avtomatik cheklovchi “dropper” shaxslarning ommaviy-

xususiy **Yagona reyestrini yaratish** taklif etiladi;

15. Litsenziyalangan birjalarda kriptotransaksiyalarning foyda oluvchi egasini **majburiy identifikatsiya qilish**ni (FATFning Travel Rule qoidasi) joriy etish va bunday mablag‘larni naqdlashtirganlik uchun **sanksiyalar qo‘llash;**

16. Kriminologik monitoringning texnologik va tahliliy vositalari doirasida **yagona statistikani yuritish** (hozirda IIV, MB va Bosh prokuratura ma’lumotlari bir-biridan farq qiladi), ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar va fuqarolar murojaatlarini sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish asosida trendlarni prognozlash, har choraklik kriminologik byulletenlarni nashr etish uchun Xavfsizlik kengashi huzurida **Milliy kiberxavfsizlik kriminologik markazini tashkil etish** taklif etiladi;

17. Banklar uchun **prediktiv (bashorat qiluvchi) tahlil tizimini joriy** etish: pul o‘g‘irlanishidan avval noodatiy tranzaksiya andozalarini aniqlash uchun mashinaviy ta’lim modellarini qo‘llash;

18. “**Oq xakerlar” faoliyatini qonuniylashtirish** va yashirin sektorga mutaxassislar oqimini kamaytirish uchun davlat elektron platformasida **“Bug Bounty” dasturini ishga tushirish;**

19. Xalqaro hamkorlik va transchegaraviy tergov sohasida Yevropa Kengashining Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi **Budapesht konvensiyasiga qo‘shilishni tezlashtirish** taklif etiladi;

20. Rossiya Federatsiyasi, XXR, BAA, Turkiya va Qozog‘iston bilan tezkor ma’lumotlar almashinuvi to‘g‘risida ikki tomonlama **bitimlar tuzish;**

21. Bosh prokuratura huzurida xorijiy provayderlardan ma’lumotlarni saqlab qolish bo‘yicha shoshilinch so‘rovlar uchun **24/7 rejimida ishlovchi aloqa punktini (G7 24/7 Network modeli asosida) tashkil etish;**

22. “Cyber Security Summit – Central Eurasia” (Markaziy Yevroosiyo Kiberxavfsizlik Sammiti) tashabbuslarida hamda **KXShT/SHHTning zararli kod namunalarini almashish bo‘yicha faoliyatida faol ishtirok etish;**

23. Ilmiy-tadqiqot va kadrlar ta’minoti doirasida **kiberjinoyatchi tipologiyasi, jabrlanuvchi portreti, sanksiyalar samaradorligi, moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirishning viktimizatsiyaga ta’siri kabi mavzularda** kriminologik tadqiqotlar uchun **davlat buyurtmasini shakllantirish** taklif etiladi;

24. TDYU yoki Bosh prokuratura Akademiyasi negizida “**Raqamli muhit kriminologiyasi”** mutaxassisligi bo‘yicha **dissertatsiya kengashini tashkil etish;**

25. Milliy hisobotni (Yevropolning IOCTA hisobotiga o‘xshash) e’lon qilib boradigan har yilgi kiberjinoyatchilikka bag‘ishlangan **kriminologik forumni ta’sis etish.**

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/2025.27.12.Yu.01.04 ПОПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСТКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

ДУСМАТОВ ДУРБЕК РУСТАМЖОН УГЛИ

УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ И КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КИБЕРПРЕСТУПНОСТИ

12.00.08 – Уголовное право. Уголовно-исполнительное право.
12.00.15 – Криминология

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам

Ташкент - 2026

Тема диссертации доктор философии по юридическим наукам (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссии при академии наук Республики Узбекистан за №B B2023.3.PhD/Yu1168.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) и Информационно-образовательном портале ZiyoNet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Абзалова Хуршида Мирзиятовна** доктор юридических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Расулев Абдулазиз Каримович** доктор юридических наук, профессор
	Камалова Дилдора Гайратовна доктор юридических наук, профессор
Ведущая организация:	**Академия Министерства внутренних дел Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится 7 августа 2026 года в 14^{30} часов на заседании Научного совета Ds.07/2025.27.12.Yu.01.04 при Ташкентском государственном юридическом университете. (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, 35. Тел.: +998 71 233-66-36; факс: +9989 71 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрирована за №343.9), (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. А.Темура, 13. Тел.: +998 71 233-66-36.

Автореферат диссертации разослан 22 июля 2026 года.
(Протокол реестра № 6 от 22 июля 2026 года).

Р.А. Зуфаров
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

Н.К. Ходжиев
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по юридическим наукам, и.о доцента

Ш.Дж. Хайдаров
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации.

В мире в условиях ускоряющейся цифровизации экономики киберпреступность приобретает характер одной из ключевых глобальных угроз устойчивому развитию организаций и государств. По оценке Cybersecurity Ventures, совокупный мировой ущерб от киберпреступности в 2024 году достигла 9,5 трлн долл. США, а в 2025 году – 10,5 трлн долл. США. Значимость проблемы усиливается вследствие расширения цифровой поверхности атаки, обусловленного ростом облачных технологий, удалённых сервисов, Интернета вещей и объёмов данных. Особую опасность представляют программы-вымогатели, ущерб от которых в 2024 году оценивается в 42 млрд долл. США с прогнозом увеличения до 265 млрд долл. США к 2031 году. Дополнительным фактором риска выступает сохраняющийся глобальный дефицит кадров в сфере кибербезопасности, достигающий 3,5 млн незакрытых вакансий. Указанные обстоятельства подтверждают высокую научную и практическую актуальность исследований, направленных на разработку эффективных механизмов обеспечения киберустойчивости организаций[1].

В концептуальном плане уголовно-правовые и криминологические аспекты противодействия киберпреступности в мире формируются под воздействием фундаментальных тенденций глобального развития. Современный этап развития человечества характеризуется беспрецедентной цифровой трансформацией всех сфер общественной жизни – от экономики и государственного управления до частной коммуникации и социальных отношений. Формирование глобального киберпространства как принципиально нового измерения социального бытия сопровождается качественным преобразованием феноменологии преступности: возникает самостоятельный род общественно опасных деяний – киберпреступность, обладающая уникальными онтологическими свойствами, которые не укладываются в классические уголовно-правовые и криминологические конструкции, сформированные в индустриальную эпоху.

Республика Узбекистан, активно внедряя информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) в систему государственного управления, экономику, банковскую сферу, образование и здравоохранение, одновременно сталкивается с ростом преступлений, совершаемых с использованием компьютерных систем и сетей. Данные Министерства внутренних дел республики свидетельствуют о постоянном росте преступлений в цифровой среде. Только в 2023 году органами правопорядка зарегистрировано более 8 тысяч киберпреступных деяний, среди которых – фишинговые схемы, компьютерные взломы, онлайн-мошенничество, неавторизованный доступ к информационным ресурсам и распространение вирусного программного обеспечения. При этом уровень раскрываемости

[1] Cybercrime To Cost The World $9.5 Trillion USD Annually In 2024. https://www.esentire.com/web-native-pages/cybercrime-to-cost-the-world-9-5-trillion-usd-annually-in-2024

преступлений остаётся низким, что объясняется как высокой технологической сложностью их расследования, так и недостаточной эффективностью существующего правового регулирования в данной сфере. В стране проводится важная работа по борьбе с киберпреступностью, предпринимаются меры по укреплению правовой базы в сфере кибербезопасности. Тем не менее, уголовно-правовое регулирование в рассматриваемой сфере по-прежнему характеризуется рядом существенных пробелов. В частности, в Уголовном кодексе отсутствует систематизированный подход к квалификации преступлений, совершаемых в киберсреде. Законодательство не учитывает особенности киберпреступлений, связанных с криптоактивами, интернет-мошенничеством, атаками на критическую инфраструктуру. Это, в свою очередь, затрудняет правоприменение, приводит к правовой неопределенности. С криминологической точки зрения, остаются недостаточно исследованными причины и условия, способствующие развитию киберпреступности. До настоящего времени не выработан эффективный механизм её предупреждения, отсутствует комплексная система сбора и анализа статистических данных, а уровень цифровой культуры населения остаётся недостаточным. Комплексное исследование уголовно-правовых и криминологических аспектов киберпреступности, представляет собой востребованное и своевременное научное направление, способствующее укреплению правопорядка в цифровую эпоху и обеспечению информационной безопасности государства.

Настоящее исследование в определенной степени послужит реализации Законов Республики Узбекистан от 12 декабря 2002 года №ЗРУ–439 «О принципах и гарантиях свободы информации», от 15 апреля 2022 г. №ЗРУ-764 «О кибербезопасности», Указов Президента Республики Узбекистан от 3 марта 2026 года №УП–33 «О дополнительных организационно-правовых мерах по усилению защиты прав женщин и детей, а также предотвращению случаев притеснения и насилия в отношении них», от 10 марта 2026 года №УП–38 «Об определении Стратегии кибербезопасности Республики Узбекистан и совершенствовании системы предупреждения киберпреступности», Постановлений Президента Республики Узбекистан от 14 сентября 2019 года №ПП–4452 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы контроля за внедрением информационных технологий и коммуникаций, организации их защиты», от 30 апреля 2025 года №ПП–153 «О мерах, направленных на дальнейшее усиление деятельности по борьбе с преступлениями, совершаемыми с помощью информационных технологий», от 5 января 2026 года №ПП–1 «О дополнительных мерах по внедрению целостной системы адресной работы в направлении создания безопасной среды в махаллях республики» и иных актов законодательства в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их

реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы.

Уголовно-правовые и криминологические аспекты противодействия киберпреступности в Республике Узбекистан до настоящего времени не получили комплексной монографической разработки. Отдельные вопросы охраны информационных отношений, квалификации преступлений в цифровой среде и совершенствования уголовного законодательства исследовались в работах отечественных учёных — М.Х. Рустамбаева, А. Анорбаева, Н.С. Салаева, Х.Р. Очилова, А.К. Расулева, А.С. Турсунова и других, — однако в этих исследованиях не ставилась задача системного пересмотра структуры Особенной части Уголовного кодекса применительно к киберпреступности как самостоятельному виду преступного поведения.

Значительно более разработанной рассматриваемая проблематика является в российской и зарубежной доктрине. Здесь условно можно выделить три исследовательских направления.

